

## **CHET TILI MASHG‘ULOTLARIDA TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

***Shodiyev Rahimjon Safarovich***

*Toshkent amaliy fanlar universiteti “Chet tillar”*

*kafedrasi katta o‘qituvchisi*

***Salimova Hidoyatxon, Tilovova Madina***

*Toshkent amaliy fanlar universiteti talabalari*

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada o‘qituvchi chet tili mashg ‘ulotlarda texnik vositalardan foydalanishning ahamiyati, pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarni qo‘llashi, axborot kommunikatsiya texnologiyalari chet tilini samarali o‘rgatishda muvaffaqiyat omili hamda uning ahamiyati haqida ma’lumot berilgan.

***Kalit so‘zlar:*** Chet tili, kompyuter, internet, pedagogik texnologiya, axborot kommunikatsiya texnologiyalari.

***Abstract:*** this article provides information about the importance of loading the teacher with technical tools in foreign language classes, the use of pedagogical and information communication technology, and the success of information communication technology in effectively teaching a foreign language.

***Key words:*** foreign language, computer, Internet, pedagogical technology, information communication technologies.

XXI asr – yuksak texnologiyalar asri bo‘lib, zamonaviy yoshlаримиз nafaqat davr ruhiga monand, balki elektron olamdagи taraqqiyotga muvofiq qadam tashlanmoqda. Ta’lim – tarbiya - har qaysi davlat va jamiyatning nafaqat

bugungi, balki ertangi kunini ham hal qiladigan eng muhim va ustivor masaladir. Shavkat Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizning modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, uning raqobat bardoshligini oshirish uchun muhim ustivor loyihalarni amalga qo‘llash uchun hamma sohalar bo‘yicha Dastur ishlab chiqilmoqda. Shuningdek kompyuter tarmoqlari rivojlanishi orqali chet ellik hamkorlar bilan muloqot qilish imkoniyati tug‘ildi va chet tilini biluvchi mutaxassislarga bo‘lgan talab yanada oshdi. Bu bilan bog‘liq ravishda chet tilini o‘qitish maqsad va vazifalarni o‘zgartirish va aniqlashtirish mutaxassislar tayyorlashni yangi va zamonaviy yo‘nalishlari paydo bo‘ldi [1.132 bet].

Zamonaviy dars samaradorligiga ta’limiy dasturlar, Internetda axborotni izlab topish, natija sifatida chet tillarini o‘rganishga qiziqishning o‘sishi, xalqlararo, madaniyatlararo muloqotga aloqadorlilikni anglash, ta’lim muhiti doirasini kengaytirish imkoniyati asosida erishiladi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining(AKT) chet tilini samarali o‘rganishda muvaffaqiyat omili hisoblanadi. Chet tillarini samarali o‘rganish, yangi lig‘at boyligini yanada osonroq o‘zlashtirish masalasi ko‘pgina olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsada, doim dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi. Bugungi jahon glaballashuvi davrida zamon talabi bilan mazkur masalaga bunday yondashilishi albatta tabiiy holdir. Ko‘pincha chet tilini o‘rganish da bilingval ta’limni tashkil etilishi bir necha chet tillarini chuqurlashtirib o‘rganishga imkon beradi. Ba’zan chet tillarini o‘rganishga ajratilgan dars soatlari va maxsus darsliklar soni darsni o‘zlashtirishga yetarli darajada bo‘lmasligi muammolariga duch kelinadi. Mazkur muammolar yechimini topishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari(AKT) va Internet tarmog‘idagi resurslar muhim o‘rin tutadi.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, agar o‘quvchi o‘z ona tilini yaxshi bilsa, qonun-qoidalariga amal qilish malakasiga ega bo‘lsa, uning mavjud lingvistik tajribasi boshqa chet tilini o‘zlashtirishiga ham zamin bo‘ladi. Tilning grammatik tushunchalarini va atamalarini tezroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Shu tariqa, tillararo o‘xshashlik va farq qiluvchi omillarini o‘rganib, boshqa tilni oson

o‘zlashtiradi. Fonetik, leksik, grammatik darajada til hodisalarini solishtirish lingvistika sohasini boyituvchi material beradi. Shu boisdan, tillararo qiyosiy tahlil muhim ahamiyatga molik. Bu chet tilidagi yangi materialni shunchaki o‘zlashtirishgina emas, balki unga o‘quvchi-talabalarda alohida qiziqish bilan yondashuvni ham ta’minlaydi. Agar o‘quvchi bir tilning qoidalari va asosiy tushunchalarini yaxshi bilsa, boshqa tilni ham o‘rgana olishiga ishonch bilan qaraydi. Shaxsning lingvistik bilimlarni egallab borayotganligi go‘yo ilmiy yangiliklarni o‘z ongida kashf etib borayotgandek, ham qiziqarli, ham yanada ko‘proq bilish motivatsiyasini kuchaytiradi. Bu borada dars jarayonida o‘qituvchi tillar orasidagi farqlar va o‘xshashliklarni tushuntirib borishi ham katta ahamiyatlari o‘rin tutadi, ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan, elektron resurslardan foydalanib, dars o‘tilishi o‘quvchi-talabalarga darsni oson o‘zlashtirish va tilning leksik hamda grammatik hodisalarini qiyosiy o‘rganib, turli mashqlarni bajarishda katta imkoniyat yaratadi.

Chet tilini chuqur o‘rganadigan talabalarni oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish borasida ular olgan bilimlarini keljakda aniq maqsadlarda qo‘llay olishlari haqida tessavurga ega bo‘lishlari kerak. Nutqiy faoliyat turlarining kasbiy faoliyat turlari bilan moslashuvi, kerakli axborot va uning tahlilini olish maqsadida qo‘lyozma, bosma va elektron matnlarni o‘qish , chet tilini bilish darajasini takomillashtirishda mustaqil faoliyat: gapishtish, eshitish, o‘qish, yozish, tarjima qilish hamda erkin fikr almashish talab etadi. Kasbiy vazifalarni bajarishda kerak bo‘ladigan nutqiy faoliyatning maxsus va asosiy turlarini takomillashtirish lozimdir.

Bularni amalga oshirishda texnik vositalarning ahamiyati kattadir. Texnika va texnologiya rivojlangan bir davrda chet tilini o‘rganishda internet tarmogidan foydalanish, masofaviy ta’lim , kompyuter, magnitafon, videomagnitafonlardan o‘rinli foydalanish yaxshi samara beradi. Chet tili mashg‘ulotlarida bunday texnika vositalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Kompyuter eng qulay texnik vosita bo‘lib mavzu bo‘yicha har bir tayyorlangan slaydlar ketma –ketlikka va animatsiyaga ega. Slaydlarning

ixcham, mazmunli, rangli, estetik did bilan tayyorlanishi e'tiborni o'ziga jalg qiladi.

Umuman aytganda kompyuter yordamida yuqoridagi muhokamali va tasviriyl usulda berilgan mashqlarni bajarish ularni chet tilida bayon qilish, talabalarning nutqini o'stirishda, hamda mavzuni tez tushunib olishda qo'l keladi. Ta'kidlab o'tkanimizdek darsda maqsad aniq qo'yilib, o'qituvchi tomonidan slaydlar rangli, annimasiyali, mazmunan va shaklan qulay tayyorlangan bo'lishi lozim. Ko'rgazmalilik prinsipidan foydalanib o'tiladigan bunday darslar hozirgi kunda keng ommalashib borayotgan interaktiv uslubdagi darslardan biridir. Bunday darslarda ham o'qituvchi asosan darsni boshqaradi, ham talaba ko'proq o'zi ustida ishlaydi [2.87 bet].

Chet tili fanini har-bir o'qituvchi o'z uslublaridan kelib chiqib tashkillashtiradi va uni talabalarga oson yo'llar bilan tushuntirishga harakat qiladi. Bunday usullarning turlari juda ko'p, qaysi bir o'qituvchi o'z darslarida tarqatma materiallardan ko'proq foydalansa, boshqa bir o'qituvchi texnik vositalardan imkon darajasida ko'proq foydalanadi.

Masalan, oddiy magnitafon orqali darslarni olib borish, yoki topshiriqlarni bajarish. Bunda magnitafon orqali tashkil qilinadigan mashqlarda dastlab o'qituvchining ko'rsatmasi eshitiladi. Magnitafondan eshitilgan jumlaning ohangi, so'z tartibi va tayanch vositalaridan foydalanish tartibiga riosa qilingan holda taqlidiy takrorlash mashqlari bajariladi. Bunda ko'p martalik takror nafaqat eshitilgan jumлага ongli javob berishga, jumlaning ohangi, leksik, grammatik belgilarining ham aniq tushunilishi va o'zlashtirilishiga olib keladi. Bundan tashqari quyidagi mashqlar o'zlashtirilgan jumladagi so'z tartibini o'zgartirish, gapirish (to'g'ri so'z tartibli gaplarni noto'g'ri so'z tartibli gaplarga aylantirish, otlar o'rniga olmoshlar, ko'rsatilgan so'zlar o'rniga sinonimlar, antonimlar) qo'yish, yoki "jumani eshitib," qoldirilgan pauzada jumladagi so'z tartibi va ohangiga taqlid qilib tasdiq, inkor va so'roq shaklida javob berish asosida tashkil qilinadi [3.287 bet].

Kompyuter orqali bajariladigan mashqlar ovozli va ovozsiz shaklda uyshtirilishi mumkin. Ovozli mashqlarda topshiriqlarning birinchi o‘qituvchi tomonidan ifodalangan ovozli video tasviri ko‘rsatiladi. Kompyuter orqali ovozsiz bajariladigan mustaqil ish monitorda test topshirig‘i va uning javob variantlarini ko‘rsatish orqali tashkil qilinadi. Bunday mashqlar, odatda talabalarning o‘z- o‘zlarini tekshirishlari uchun qo‘l keladi.

Xulosa qilib aytganda chet tili fanini har-bir o‘qituvchi o‘z uslublaridan kelib chiqib tashkillashtiradi va uni talabalarga oson yo‘llar bilan tushuntirishga harakat qiladi. Bunday usullarning turlari juda ko‘p, qaysi bir o‘qituvchi o‘z darslarida tarqatma materiallardan ko‘proq foydalansa, boshqa bir o‘qituvchi texnik vositalardan imkon darajasida ko‘proq foydalanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Azizzxo‘jayeva N.N. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” Toshkent 2003 y. (132 bet)
2. Eshmuhammedov R. J. “Innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samarador- lagini oshirish yo‘llari” Toshkent 2004 y. 87 bet
3. Jalolov J.“Chet tili o‘qitish metodikasi”, Toshkent “O‘qituvchi nashriyoti” 1996.
4. Saidaliyev N. Chet til o‘qitish metodlari. Toshkent, 2008. (287 bet)
5. Маллаев О. Янги педагогик технологиялар. Т. 2000